

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SHAHNISABZ SHAHRIDAGI TARIXIY INSHOOTLARNING TA'MIRLANISH JARAYONLARI TARIXI (1991–2024-YILLAR)

Ochilov Davron Bahodir o'g'li

Sarboon Universiteti, o'qituvchi.

e-mail: davronochilov2002@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-1431-1344>
Annotatsiya.

Maqolada 1991–2024-yillar davomida Shahrisabz shahridagi tarixiy-me'moriy inshootlarning ta'mirlanish va restavratsiya jarayonlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillik davrida olib borilgan davlat siyosatining asosiy bosqichlari, Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat, Ko'kgumbaz, Hazrati Imom va boshqa yirik yodgorliklarning tiklanish tarixi xronologik tartibda yoritiladi. Ilmiy-amaliy konferensiyalar, xalqaro yubiley tadbirlari, normativ-huquqiy asoslar hamda xorijiy hamkorlik tajribasi asosida shahar madaniy merosini saqlash borasidagi yutuq va muammolar ochib beriladi. Muallif tomonidan normativ-huquqiy baza, ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot materiallari hamda arxiv hujjatlari asosida tadqiqotning mustaqil xulosalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, tarixiy meros, restavratsiya, konservatsiya, Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat, Ko'kgumbaz masjidi, Temuriylar davri.

ИСТОРИЯ ПРОЦЕССОВ РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ ГОРОДА ШАХРИСАБЗА (1991–2024 ГГ.)

Очилов Даврон Баходир угли

Университет Сарбоон, учитель.

Аннотация.

В статье системно анализируются процессы ремонта и реставрации историко-архитектурных сооружений города Шахрисабза в 1991–2024 годах. В хронологическом порядке освещаются основные этапы государственной политики периода независимости, а также история восстановления дворца Аксарай, комплексов Дорут-Тиловат и Дорус-Саодат, мечети Кок-Гумбаз, комплекса Хазрати Имам и других крупных памятников. На основе материалов научно-практических конференций, международных юбилейных мероприятий, нормативно-правовой базы и опыта международного сотрудничества раскрываются достижения и проблемы в области сохранения культурного наследия города. На основе анализа нормативно-правовых документов, научной литературы, материалов периодической печати и архивных источников автором сформулированы самостоятельные выводы исследования.

Ключевые слова: Шахрисабз, историческое наследие, реставрация, консервация, Аксарай, Дорут-Тиловат, Дорус-Саодат, мечеть Кок-Гумбаз, эпоха Тимуридов.

THE HISTORY OF THE RESTORATION OF HISTORICAL MONUMENTS IN SHAHRISABZ (1991–2024)

Ochilov Davron Bahodir o'g'li

Sarboon University, Teacher.

Abstract.

The article provides a systematic analysis of the repair and restoration processes of historical and architectural monuments in Shahrisabz between 1991 and 2024. The study chronologically examines the main stages of state policy during the independence period and the history of the restoration of major monuments, including the Ak-Saray Palace, Dorut-Tilovat and Dorus-Saodat complexes, the Kok-Gumbaz Mosque, the Hazrati Imam complex, and other significant heritage sites. Drawing on materials from scientific and practical conferences, international anniversary events, the regulatory and legal framework, and international cooperation practices, the article identifies the achievements and challenges associated with preserving the city's cultural heritage. Based on the analysis of legal and regulatory documents, scholarly literature, periodical publications, and archival materials, the author formulates independent conclusions concerning the restoration and preservation of Shahrisabz's historical heritage.

Keywords: Shahrisabz, historical heritage, restoration, conservation, Ak-Saray, Dorut-Tilovat, Dorus-Saodat, Kok-Gumbaz Mosque, Timurid period.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tarixiy-madaniy merosni asrash, uni ilmiy asosda restavratsiya va konservatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayon Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar bilan bir qatorda Qashqadaryo vohasi, xususan, Sohibqiron Amir Temur vatani Shahrisabz shahrida ham o'ziga xos tarzda kechdi. Shahrisabz — Temuriylar davrining eng yirik bunyodkorlik markazlaridan biri bo'lib, uning tarixiy-me'moriy yodgorliklari nafaqat milliy, balki umuminsoniy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. Shahar Oqsaroy saroyi, Dorut-tilovat, Dorus-sodat, Ko'kgumbaz, Hazrati Imom, Chorsu, Chubin kabi Temuriylar davriga oid yodgorliklari bilan jahon miqyosida mashhur bo'lib, 2000-yildan buyon YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [1].

Oqsaroy saroyi, Dorut-tilovat, Dorus-sodat majmualari, Ko'kgumbaz va Hazrati Imom masjidlari, Chorsu va Chubin kabi tarixiy obidalar XIV–XV asrlarda Temuriylar davlati poytaxti sifatida shakllangan shaharning betakror me'moriy qiyofasini tashkil etadi. Akademik G. A. Pugachenkova va M. Ye. Masson tomonidan ilmiy ishonchli manbalar asosida yoritilishicha, Oqsaroy majmuasi taxminan 8 gektar hududni egallagan, unga tutash yana shuncha maydonda saroy bog'i mavjud bo'lgan. Mazkur ma'lumotlar Klavixo qaydnomalari bilan ham tasdiqlanadi. Biroq sovet davrida ushbu inshootlarning ko'pchiligi asl vazifasidan chetlashtirilib, omborxona, qamoqxona yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan. Mustaqillik yillarida ularni qayta tiklash va xalqaro miqyosda e'tirof ettirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi [2].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda mamlakatimiz tarixiy obidalarini saqlash, tiklash va ulardan samarali foydalanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-son qaror va 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarorlar soha rivojiga yangi imkoniyatlar yaratdi. 2018-yil 10-sentabrda qabul qilingan 5361-sonli qaror hamda 2021-yil 10-fevraldagi 6165-sonli qaror sohada tubdan yangi yondashuvni shakllantirdi [3]. Bunday sharoitda Shahrisabzning o'ziga xos tarixiy-madaniy merosini o'rganish, ta'mirlash jarayonlarini tizimli tahlil qilish va ilmiy xulosalar berish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shahrisabz tarixiy obidalarining ta'mirlanishi mavzusida muayyan ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, 1991–2024-yillarni qamrab olgan kompleks tahlil, shu jumladan, normativ-huquqiy bazaning rivojlanishi, xalqaro hamkorlik tajribasi, mamlakat miqyosidagi yubiley tadbirlarining ta'siri tizimli ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur maqola mavjud bilimlarni boyitishga va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi 1991–2024-yillar davomida Shahrisabz shahridagi tarixiy inshootlarni ta'mirlash va restavratsiya qilish jarayonlarini xronologik tartibda yoritish, ularning samaradorligi va mavjud muammolarini ilmiy tahlil asosida baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalari 1991-yilgacha va undan keyingi davrlarda Shahrisabz tarixiy obidalarining holatini qiyosiy tahlil qilish, to'rt bosqichli davlat siyosati jarayonini ochib berish, normativ-huquqiy bazaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, xorijiy hamkorlik tajribasini tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shahrisabz shahri tarixiy-me'moriy yodgorliklari va ularning ta'mirlanish jarayonlari haqida turli davrlarda muayyan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M. Ye. Masson va G. A. Pugachenkovaning 1953-yilda nashr etilgan "Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке" nomli fundamental tadqiqot ishida Temuriylar davrida shaharning me'moriy qiyofasi, saroy va majmualarning bunyod etilishi tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Ushbu tadqiqotda arxeologik-topografik ekspeditsiya materiallari, Klavixo qaydnomalari va boshqa yozma manbalarga tayanilgan bo'lib, shaharning Temuriylar davridagi tarixiy o'rni ilmiy jihatdan asoslangan [4]. G. A. Pugachenkovaning keyingi yillardagi ishlarida Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklarini restavratsiya qilish va konservatsiyalashning nazariy masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotchi restavratsiya va konservatsiya o'rtasidagi muvozanat, yodgorliklarning asl qiyofasini saqlash tamoyillari haqida ilmiy qarashlarini bayon etgan [5]. M. Ye. Massonning "Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен" asarida 1965–1966-yillarda olib borilgan Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi materiallari asosida Qashqadaryo vohasidagi qadimiy shaharlar, shu jumladan Shahrisabz haqidagi tarixiy-madaniy ma'lumotlar tizimlashtirilgan [11].

B. N. Zasiptin, V. L. Voronina, S. K. Kabanov, A. Haqqulov, P. Sh. Zohidov kabi olimlarning tadqiqotlarida ham Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklari, shu jumladan Shahrisabz obidalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, A. Haqqulovning "Таъмир санъати" (1991) asarida an'anaviy ta'mirlash usullari, usta-mahorat maktabining shakllanishi va rivojlanishi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan [15]. N. S. Sodiqova va Yu. F. Buryakovlarning "Tarixiy yodgorliklar xazinasini" (1976) asarida esa tarixiy yodgorliklarni ilmiy o'rganish, ro'yxatga olish va saqlashning nazariy-uslubiy masalalari yoritilgan [16].

O'. Bo'riyev va A. Xo'jayevlarning "Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari" nomli asarida Shahrisabz va uning atrofidagi ziyoratgohlar, ularning tarixiy ahamiyati batafsil ochib berilgan [6]. S. Rahmatovning "Qadimiy va navqiron Shahrisabz" (2019) asarida shaharning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, arxitektura yodgorliklari va ularning o'ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan [7]. O. Jo'raqulov va A. Rahmatovlarning "Shahrisabz yilnomasi" (2007) asarida shaharning yilma-yil voqealari, yodgorliklarning qurilish va ta'mirlash tarixi yoritilgan [30]. O. Bo'riyevning "Manbalarda Shahrisabz tavsifi" (2004) kitobi shaharning tarixiy obidalari haqidagi yozma manbalar tahlilini o'z ichiga olgan [31].

Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar orasida M. Allayevning "Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida 1991–2021-

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat

yillarda Qashqadaryo viloyati, shu jumladan Shahrisabz shahridagi tarixiy obidalarini restavratsiya qilish jarayonlari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2015-yilda viloyat hududidagi tarixiy obidalarda 11,5 mlrd soʻmdan ortiq mablagʻ hisobiga restavratsiya va konservatsiya ishlari bajarilgani, natijada Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-sodat, Chorsu majmualari, Chubin va Abdushukur Ogʻaliq madrasalari, Malik Ajdar va Kunduzak masjidilari qayta tiklangani qayd etilgan [8]. J. Eshtemirovning “XX-XXI asr boshlarida Qarshi shahar madaniyati” mavzusidagi tadqiqotida esa janubiy mintaqada madaniy merosini saqlash masalalari, shu jumladan Shahrisabzga doir maʼlumotlar yoritilgan [9]. X. T. Sultanovning “Shahrisabz XIV-XV asrlar meʼmoriy ansamblarining shakllanishi tarixi” mavzusidagi dissertatsiya avtoreferatida shaharning oʻrta asrlar meʼmoriy yodgorliklari arxeologik maʼlumotlar asosida tadqiq etilgan [33].

Shahrisabzga oid xorijiy tadqiqotlar orasida fransuz olimlarining, xususan, SOKRA (sanʼat asarlarini taʼmirlash va konservatsiyalash milliy kompaniyasi) mutaxassislarning 2013–2014-yillarda Oqsaroy mozaikali pollarini taʼmirlash boʻyicha olib borgan ilmiy-amaliy ishlari alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlar shaharning xalqaro miqyosdagi oʻrnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi va Oqsaroy majmuasining bezak elementlarini qayta tiklashda fransuz va oʻzbek mutaxassislari hamkorligini namoyish etadi [10]. Bundan tashqari, Ruy Gonsales de Klavixo kabi oʻrta asr sayyohlarining qaydnomalari ham shaharning tarixiy obidalar haqida qimmatli maʼlumotlarni saqlab qolgan.

Tadqiqotda tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahliliy, arxiv hujjatlarini ilmiy-qiyosiy tahlil qilish, statistik tahlil hamda ilmiy-amaliy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar (qonunlar, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari), arxiv materiallari, davriy matbuot maʼlumotlari, ilmiy adabiyotlar va dissertatsiyalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Bundan tashqari, tarixiy voqealar sabab-oqibat bogʻliqligi asosida yoritildi, har bir bosqichning oʻziga xos xususiyatlari alohida taʼkidlandi. Maqolada qoʻllanilgan manbalar va maʼlumotlarning ishonchliligi ularning haqiqiy, mavjud nashrlar va huquqiy hujjatlarga asoslanishi bilan belgilanadi.

MUHOKAMA

Shahrisabz shahridagi tarixiy inshootlarni taʼmirlash jarayonlarini tizimli tahlil qilish uchun, avvalo, 1991-yilgacha boʻlgan davrdagi merosning umumiy holatini baholash zarur. 1968-yilda Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan “Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilingan boʻlsa-da, amalda tarixiy obidalar nisbatan tanlangan yondashuv hukmron boʻlgan. Shahrisabzda ham 1976-yilda partiya Markaziy Qoʻmitasi qaroriga asosan tarixiy obidalarini restavratsiya va konservatsiya qilishga ixtisoslashgan maxsus uchastka tashkil etilgan va Koʻkgumbaz, Oqsaroy kabi yirik yodgorliklarda yuzaki taʼmirlash ishlari olib borilgan. Biroq sovet davrida Koʻkgumbaz masjidi avval qamoqxona, keyinchalik mineral oʻgʻitlar saqlanadigan omborxona, savdo tashkilotlari tasarrufidagi bino sifatida foydalanilgan. XX asrning 50-yillaridan boshlab masjid Shahrisabz tumanidagi oʻt oʻchirish boʻlimi ixtiyoriga berilgan, tarixiy ahamiyati butunlay eʼtibordan chetda qolgan [12].

Oqsaroy majmuasi ham sovet davrida 1976-yilgacha taʼmirtalab ahvolda boʻlib, faqat sirtqi qismlarida arzimaz taʼmirlash ishlari bajarilgan. Saroyning ichki qismi va bezak elementlari yillar davomida tabiiy ofatlar, namlik va boshqa tashqi taʼsirlar natijasida yemirilgan. Dorut-tilovat majmuasi tarkibidagi Shamsiddin Kulol maqbarasi va Gumbazi Sayyidon kabi obidalar ham eʼtiborsizlik natijasida buzilish holatiga kelgan. Shunday qilib, mustaqillik arafasida Shahrisabz tarixiy obidalarining aksariyati tanazzul holatida boʻlib, ularni saqlab qolish uchun zudlik bilan tizimli chora-tadbirlar koʻrish zarurati tugʻilgan edi.

Mustaqillik yillarida Shahrisabzdagi taʼmirlash jarayonlarini shartli ravishda toʻrt bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich — 1991–1996-yillar Mirzo Ulugʻbek tavalludining 600 yilligi (1994) va Amir Temur tavalludining 660 yilligi (1996) yubileyi bilan bogʻliq dastlabki tizimli ishlar boshlangan davrdir. 1993-yil 5-yanvarda Amir Temur va Mirzo Ulugʻbek nomlari bilan bogʻliq yodgorliklarni taʼmirlash, shuningdek, Jahongir maqbarasi qoldiqlarining gidrogeologik holatini oʻrganish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan 1993-yil 1-oktabrda Shahrisabz hududidagi tarixiy obidalarini oʻrganishga qaratilgan maxsus ekspeditsiya tashkil etildi va 106,4 mln soʻm mablagʻ Shamsiddin Kulol maqbarasi, Koʻkgumbaz masjidi, Dorut-tilovat majmuasi hamda Gumbazi Sayyidon maqbarasini tiklashga yoʻnaltirildi [13].

1994-yilda Mirzo Ulugʻbek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan Koʻkgumbaz va Hazrati Imom masjidlarida keng koʻlamli qurilish va restavratsiya ishlari boshlandi. Shahrisabzdagi Koʻkgumbaz masjidi dastlab 1994-yilda restavratsiya qilindi. Keyingi yili, 1995-yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga tayyorgarlik doirasida inshootda keng koʻlamli taʼmirlash ishlari boshlandi. Manbalarga koʻra, Shahrisabzdagi boshqa obidalar qatori ushbu masjidni tiklash va obodonlashtirish jarayonlarida mahalliy aholi ham hashar yoʻli bilan faol ishtirok etgan. 1995-yilda ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida Oqsaroy arkini taʼmirlash, konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari yoʻlga qoʻyildi.

“Tarixiy yodgorliklarni ilmiy taʼmirlash Shahrisabz korxonasi” bosh pudratchi sifatida ishtirok etib, “Hisoraksuvqurilish” tresti yordamchi tashkilot sifatida jalb qilindi. Qurilish ishlari uchun 2 million soʻm miqdorida mablagʻ ajratildi. Shahrisabzdagi eski shahar qalʼasining 100 metrga yaqin qismi hamda “Kunchiqar” va “Samarqand” darvozalarida taʼmirlash ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlar doirasida ayrim hududlarda arxeologik kuzatishlar ham olib borildi [14]. Shahar hokimligi buyurtmasi asosida “Oʻzbektaʼmirshunoslik” instituti mutaxassislari tomonidan tarixiy hammom inshooti atrofiga oʻrganilib, uni zamonaviy sharqona uslubda taʼmirlash loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaga institut ilmiy xodimi Z. P. Shlix boshchilik qildi.

1995-yilda Chubin madrasasida 21 ming kvadrat metrdan ortiq maydonda qayta tiklash ishlari bajarilib, 450 kv. metr maydonda masjid binosi va 950 kv. metr maydonda yangi hujralar barpo etildi. Shahrisabz ilmiy taʼmirlash ustaxonasining U. Koʻpaysinov rahbarligidagi quruvchilari tomonidan olib borilgan ishlarda T. Qurbonov boshchiligidagi taʼmirlovchilar brigadasi oʻrta asr hammomi gumbazini qayta tikladi, eshiklar esa usta Sh. Qoʻziyev

tomonidan sharqona yog'och o'ymakorligi uslubida bajarildi. 1995-yil yakuniga qadar Dorus-saodat va Dorut-tilovat majmualarida keng ko'lamli ta'mirlash ishlari yakunlandi. Jahongir maqbarasining tashqi qismi konservatsiya qilinib, ichki qismida tiklash ishlari olib borildi. Majmuaning yer osti qismlarida arxeologik tadqiqotlar o'tkazilib, uning tarixiy qoldiqlari ilmiy asosda o'rganildi [15].

1996-yilda Amir Temur tavalludining xalqaro miqyosda nishonlanishi arafasida Shahrisabzda Temuriylar davriga oid yodgorliklarda keng ko'lamli ta'mirlash va restavratsiya ishlari yakunlandi. Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va Amir Temur moddiy madaniyat tarixi muzeyi mutaxassislari hamkorligida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Dorus-saodat majmuasi hududidan hammomga oid supa toshlari aniqlandi. Shu yilning 18-oktabrida Oqsaroy majmuasi oldida haykaltarosh Ilhom Jabborov tomonidan yaratilgan Amir Temur haykali tantanali ravishda ochildi. Ushbu maqsadlar uchun 170 mln so'm mablag' sarflanib, 12 gektar maydonda obodonlashtirish ishlari bajarildi. Shuningdek, 1996-yil 26-aprelda "Amir Temur" ordeni ta'sis etilib, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari o'rnatildi [16; 22].

1996–2002-yillar Shahrisabz tarixiy markazining xalqaro e'tirof etilishi bilan ajralib turadi. 2000-yil 11-fevralda YUNESKO anjumanida shaharning qadimiy yodgorliklarga boy tarixiy markazini Jahon merosi ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston 1996-yil aprel oyida "Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shildi [17]. 2001-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi 269-II-son Qonuni ushbu jarayonning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi va keyingi yillarda unga bir necha bor o'zgartirishlar kiritildi [18].

2002-yilda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan tarixiy obidalarni tiklash ishlari yanada jadallashdi. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona vodiysi hamda Shahrisabzning o'zidan kelgan malakali hunarmand va ustalar jalb etilib, Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat majmualari, Chubin madrasasi va Chorsu yodgorligida bir milliard so'mdan ortiq mablag' o'zlashtirildi. Oqsaroy majmuasida 119 mln so'mlik ta'mirlash ishlari bajarildi. Shahar infratuzilmasi ham rivojlantirilib, Amir Temur xiyobonida 1800 o'rinli amfiteatr barpo etildi; ushbu loyiha doirasida 200 mln so'mlik qurilish ishlari bajarildi [19]. Shu tariqa, yubiley tadbirlari nafaqat tarixiy obidalarni tiklash, balki shahar ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirish uchun ham turtki bo'ldi.

2002–2014-yillar xalqaro hamkorlikning kengayishi va xorijiy mutaxassislarning jalb etilishi bilan xarakterlanadi. 2001–2014-yillar davomida fransuz mutaxassislari ishtirokida Oqsaroy majmuasida ilmiy-tadqiqot va restavratsiya ishlari olib borildi. Fransiya Respublikasi Dordon departamenti hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bosh boshqarmasi o'rtasida tuzilgan konvensiyaga muvofiq, 2013-yilning iyul oyida Fransiyaning SOKRA kompaniyasi 182 kv. metr maydonli 3 ta hovuzda tuzatish, ta'mirlash va konservatsiyalash amaliyotlarini bajardi. Vaqt o'tishi bilan yemirilgan mayolika va mozaika bezaklari qayta tiklanib, maxsus himoya qoplamalari ostida saqlanmoqda [20].

2001–2002-yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar davomida Oqsaroy majmuasi hududida topilgan sopol quvurlar saroy va shahar suv ta'minoti tizimi Hisor tog'laridan oqib keluvchi suv manbalari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatdi. Bu esa shaharning o'rta asrlardagi muhandislik yechimlari haqidagi tasavvurlarni boyitdi. Fransiyalik mutaxassislar ishtirokida olib borilgan ishlar natijasida Oqsaroy mozaikali pollarining tarixiy qatlamlari to'liq o'rganilib, ularning asl ko'rinishi qayta tiklandi. Bugungi kunda ushbu bezaklar maxsus himoya qoplamalari ostida saqlanib, sayyohlar uchun namoyish etilmoqda.

2016–2024-yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev davrida tarixiy merosni saqlash borasidagi islohotlarning chuqurlashtirilishi bilan ajralib turadi. 2014-yil 20-fevraldagi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, qisqa muddat ichida Shahrisabz shahrida 20 ga yaqin tarixiy-madaniy meros obyektlari qayta ta'mirlandi: Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat majmualari, Chubin madrasasi, Chorsu, Koba karvonsaroyi, o'rta asr hammomi, Abdushukur Og'aliq madrasasi, tarixiy qal'a devori hamda qator masjid va darvozalar restavratsiya qilindi [21]. 2016-yilda "Samarqand" darvozasini tiklash ishlari amalga oshirilib, unga 1,8 mlrd so'm mablag' ajratildi; ustalar Xolmurod Sodiqov, Ilyos Eshimov, Murodullo Mahmudov, Shuhrat Berdiyev, Javohir To'xtamurodovlarning hissasi alohida ta'kidlandi [22].

2014–2016-yillarda Oqsaroydan Dorut-tilovat majmuasigacha bo'lgan tarixiy Amir Temur yo'li bo'ylab yagona madaniy muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarildi. Shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida 2016-yilda Shahrisabzga zamonaviy elektromobillar keltirilib, sayyohlar uchun qulay transport xizmatlari yo'lga qo'yildi [23]. 2018-yilda Shahrisabz shahrida birinchi bor Xalqaro maqom san'ati festivali o'tkazildi; 6–10-sentabr kunlari bo'lib o'tgan festivalda 73 ta mamlakatdan 300 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi va ilmiy-amaliy anjumanlar ham tashkil etildi [24]. 2018-yil 29-avgustda "Dorut-tilovat" majmuasi "Vaqf" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirildi [25].

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyati bo'yicha 1468 ta tarixiy-madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, ularning katta qismi arxeologik yodgorliklardir. Shahrisabz va Qarshi shaharlari hududida joylashgan Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat, Ko'kgumbaz va Hazrati Imom kabi obidalar misolida restavratsiya jarayonlari aniq faktlar asosida tahlil qilingan. 2019-yilda viloyatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 144,2 ming nafarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan qariyb 1,7 barobarga oshgan. Shahrisabzda yil davomida qariyb 15 ta xalqaro festival tashkil etilgan [26].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'mirlash jarayonlarining ijobiy tomoni shundaki, xalqaro va davlat yubileylari, xususan, Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Shahrisabz shahrining 2700 yilligi kabi sanalar bilan uzviy bog'liq holda moliyaviy va mehnat resurslarini safarbar etish imkoniyati yuzaga kelgan. Bu esa qisqa muddat ichida katta hajmdagi loyihalarni amalga oshirish imkonini bergan. Salbiy jihati shundaki, ayrim hollarda restavratsiya ishlari noto'g'ri tashkil etilgan; 1998–2001-yillarda tarixiy obyektlarni ro'yxatga

olish jarayonida texnik kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari, xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi loyihalarda ham ilmiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi talab darajasida bo'lmagan. Shu sababli 2018-yildan keyin restavratsiya ishlarini ilmiy asoslangan metodologiya, arxitektor, tarixchi va bezakchi ustalar hamkorligida olib borish zarurligi davlat hujjatlarida ham alohida ta'kidlangan [27].

Yana bir muhim jihat shundaki, ta'mirlangan obidalaridan samarali foydalanish masalasi ham dolzarb. Xususan, 2018-yil 7-fevralda qabul qilingan PQ-3514-sonli qaror hamda davlat rahbarining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar asosida Shahrisabz shahrini turizm markaziga aylantirish, xususan, festivallar shahri sifatida rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Natijada hududda turli festival, seminar va konferensiyalar muntazam ravishda o'tkazila boshlandi. Mazkur yondashuv tarixiy obidalarni foydalanish orqali saqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

NATIJALAR

1991–2024-yillar davomida Shahrisabz shahridagi tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash borasida olib borilgan tizimli tadqiqotlar quyidagi asosiy natijalarni aniqlash imkonini berdi:

Mustaqillik davrida Shahrisabzda tarixiy obidalarni ta'mirlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza tubdan takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi 269-II-son Qonuni, 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son, 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son, 2021-yil 10-fevralda PQ-6165-son qarorlar tarixiy merosni muhofaza qilishning zamonaviy tizimini shakllantirdi. 2018-yil 10-sentabrda qabul qilingan "Alohida muhim ijtimoiy, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5361-son qaror alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bevosita shahardagi yirik tarixiy obidalarni restavratsiya qilish jarayonlarini tartibga soladi [28].

Davlat yubileyleri ta'mirlash jarayonlarini jadallashtirishda muhim turtki bo'ldi. 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 2002-yilda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Oqsaroy, Ko'kgumbaz, Dorut-tilovat, Dorus-saodat, Hazrati Imom, Chubin, Chorsu, Koba karvonsaroyi, o'rta asr hammomi, Abdushukur Og'aliq madrasasi kabi 20 dan ortiq yirik tarixiy obida restavratsiya qilindi. 1993-yilda 106,4 mln so'm, 1995-yilda 2 mln so'm, 1996-yilda 170 mln so'm, 2002-yilda 1 mlrd so'mdan ortiq, 2016-yilda 1,8 mlrd so'm mablag' tarixiy obidalarni tiklashga yo'naltirildi. 2015-yilda esa viloyat miqyosida 11,5 mlrd so'mdan ortiq mablag' hisobiga restavratsiya va konservatsiya ishlari bajarildi [29].

Xalqaro hamkorlik samaradorligi oshdi. 2000-yilda YUNESKO qarori bilan Shahrisabzning tarixiy markazi Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. 2001–2014-yillarda Fransiyaning SOKRA kompaniyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda Oqsaroy mozaikali pollari konservatsiya qilindi. 2013-yilda Fransiya Respublikasi Dordon departamenti va O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi o'rtasida tuzilgan konvensiya asosida 182 kv. metr maydonda 3 ta hovuzda ta'mirlash ishlari bajarildi. Natijada mayolika va mozaika bezaklari asl ko'rinishiga qaytarildi. 1996-yilda O'zbekistonning "Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shilishi ham xalqaro huquqiy asosni mustahkamladi [30].

Ilmiy va tashkiliy infratuzilma mustahkamlandi. "Tarixiy yodgorliklarni ilmiy ta'mirlash Shahrisabz korxonasi" bosh pudratchi sifatida faoliyat yuritdi. Shahrisabz ilmiy ta'mirlash-ishlab chiqarish ustaxonasi, "Hisoraksuvqurilish" trest, "O'zbekta'mirshunoslik" instituti kabi tashkilotlar tizimli ishladi. Restavratsiya ishlarida T. Qurbonov, Sh. Qo'ziyev, U. Ko'paysinov, Xolmurod Sodiqov, Ilyos Eshimov, Murodullo Mahmudov, Shuhrat Berdiyev, Javohir To'xtamurodov, haykaltarosh Ilhom Jabborov kabi malakali ustalar va mutaxassislar ishtirok etdi. Ular tomonidan bezak, koshin, yog'och o'ymakorligi kabi an'anaviy ta'mirlash usullari qo'llanildi [31].

Turizm infratuzilmasi va xalqaro e'tirof sezilarli darajada oshirildi. 2006-yilda Shahrisabzga 90 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2018-yilning birinchi yarmida sayyohlar soni qariyb ikki barobarga oshib, 2,6 milliondan ziyodni tashkil etdi. 2018-yilda Shahrisabzda 73 ta mamlakatdan 300 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan birinchi Xalqaro maqom san'ati festivali o'tkazildi. 2018-yilda Toshkent-Shahrisabz yo'nalishida "Afrosiyob" yuqori tezlikdagi poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Qarshi xalqaro aeroportida "ochiq osmon" rejimi joriy etildi. 2018-yilda Shahrisabzda 54 ta turizm loyihasi va 183 mlrd so'mlik investitsiya dasturi amalga oshirildi [32].

Yagona reyestr va pasportlashtirish tizimi yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-noyabrda "2013–2015-yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, viloyat hududida 169 ta madaniy meros obyekti qamrab olgan yagona reyestr shakllantirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi va Madaniyat vazirligi tomonidan har bir obyektning pasporti tuzilib, ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bundan tashqari, har bir obyektning texnik holatini muntazam ravishda monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yildi [33].

Tarixiy meros obyektlaridan samarali foydalanishning yangi mexanizmlari joriy etildi. 2018-yildan e'tiboran "Vaqf" xayriya jamoat fondi tizimi orqali qadamjo va ziyoratgohlar tekin foydalanish shartnomasi asosida boshqaruvga berildi. 2018-yil 29-avgustda "Dorut-tilovat" majmuasi ham fond tasarrufiga o'tkazildi. Bu esa tarixiy obidalarni davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish imkoniyatini yaratdi [25].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1991–2024-yillar davomida Shahrisabz shahridagi tarixiy inshootlarni ta'mirlash borasida izchil davlat siyosati yuritildi. Ushbu davrda Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat, Ko'kgumbaz, Hazrati Imom, Chubin, Chorsu kabi 20 dan ortiq yirik tarixiy-madaniy meros obidasida restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirildi; shahar 2000-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi va xalqaro miqyosda o'zining tarixiy qiyofasini tikladi. Mirzo Ulug'bek, Amir Temur kabi buyuk siymolar yubileyleri hamda Shahrisabzning 2700 yilligi ta'mirlash jarayonlarini jadallashtirishda muhim omil bo'ldi.

Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, normativ-huquqiy bazaning shakllanishi 2001-yildagi Qonun va 2018-yilgi keng ko'lamli qarorlar bilan muhim bosqichga ko'tarildi. Oqsaroy, Dorut-tilovat, Dorus-saodat kabi yirik ansambllar tizimli ravishda restavratsiya qilindi; xalqaro hamkorlik, ayniqsa, Fransiyaning SOKRA kompaniyasi bilan olib borilgan ishlar zamonaviy konservatsiya usullarini joriy etish imkonini berdi. Shahar bugungi kunda xalqaro turizm markaziga aylanib, yiliga 2,6 milliondan ortiq sayyohni qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar ham mavjud. Xususan, ayrim obidalar, jumladan, Ko'kgumbaz masjidi gumbazining tashqi qismi koshin bilan qoplangan, ammo ichki bezak elementlarini to'liq tiklash imkoniyati cheklangan; 1998–2001-yillardagi ro'yxatga olish jarayonida texnik kamchiliklar aniqlangan. Bundan tashqari, ayrim hollarda restavratsiya ishlarida xorijiy mutaxassislar ishtirokida ilmiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi talab darajasida bo'lmagan. Mustaqillik yillarida tarixiy meros obyektlarining soni va ularga bo'lgan e'tibor oshgani sari boshqaruv, monitoring va ilm-fan bilan integratsiyalashgan yondashuvga ehtiyoj kuchaymoqda.

Kelgusida quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi: birinchidan, Shahrisabz shahridagi barcha tarixiy obyektlarni bosqichma-bosqich yagona reyestrga kiritish va ularni muntazam ilmiy monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish; ikkinchidan, restavratsiya ishlarini arxitektor, tarixchi va bezakchi ustalar hamkorligida ilmiy asoslangan metodologiya asosida olib borish; uchinchidan, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; to'rtinchidan, ta'mirlangan obidalardan samarali foydalanish, ularda muzey va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali Shahrisabzning xalqaro turizm markazi sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamlash; beshinchidan, tarixiy meros obyektlarini ilmiy asosda o'rganish, restavratsiya jarayonlarining sifati va samaradorligini baholash uchun maxsus ilmiy markazlar tashkil etish; oltinchidan, ustachilik an'alarini saqlab qolish va yosh avlodga o'rgatish bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, Shahrisabz tarixiy obidalarini ta'mirlash tajribasi O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy merosni asrash bo'yicha boshqa mintaqalar uchun muhim ilmiy-amaliy model sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. – 2001-yil 30-avgust. – 269-II-son. – URL: Lex.uz.
2. Пугаченкова Г. А. Архитектурные руины — реставрация или консервация? // Архитектура и строительство Узбекистана. – 1995. – № 12. – С. 37–39.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – 2018-yil 19-dekabr. – PQ-4068-son. – URL: Lex.uz — PQ-4068-son qaror.
4. Массон М. Е., Пугаченкова Г. А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Труды Среднеазиатского государственного университета. – Новая серия. – Вып. 61. – Кн. 6. – Ташкент, 1953. – 124 с.
5. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1958. – 292 с. – URL: Milliy elektron kutubxona katalogi.
6. Bo'riyev O., Xo'jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. – Toshkent, 2022.
7. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Термез, Шахрисабз, Хива. – Москва: Искусство, 1976. – 208 с.
8. Allayev M. Ch. Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi (1991–2021 yy.): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2024. – URL: ZiyoNET — avtoreferat.
9. Eshtemirov J. S. XX–XXI asr boshlarida Qarshi shahar madaniyati: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – URL: OAK — dissertatsiya himoyasi haqidagi ma'lumot.
10. Oqsaroy majmuasi mozaikali pollarini ta'mirlash bo'yicha Fransiyaning SOKRA kompaniyasi hisobotlari (2013–2014 yy.) // O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxivi.
11. Массон М. Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен: из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ, 1965–1966 гг. – Ташкент: Фан, 1973. – 94 с. – URL: NYU Faculty Digital Archive.
12. Засыпкин Б. Н. Архитектура Средней Азии. – Москва: Издательство Академии архитектуры СССР, 1948. – 157, [2] с. – URL: Президентская библиотека.
13. Воронина В. Л. Архитектура Средней Азии XVI–XVII вв. // Всеобщая история архитектуры. – Т. 8: Архитектура стран Средиземноморья, Африки и Азии. VI–XIX вв. / отв. ред. Ю. С. Яралов. – Москва: Стройиздат, 1969. – С. 304–331. – URL: Totalarch — Архитектура Средней Азии XVI–XVII вв..
14. Кабанов С. К. Описание архитектурных памятников низовьев реки Кашка-Дарьи. – Ташкент, 1947 // Архив Главного управления по охране памятников Министерства по делам культуры Республики Узбекистан. – Инв. № 1522. – URL: Bibliografik qayd.
15. Ҳаққулов А. Таъмир санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 200 б. – ISBN 5-8244-0524-7. – URL: Elektron kutubxona katalogi.
16. Содиқова Н. С., Буряков Ю. Ф. Тарихий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1976. – 69 б.
17. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 647 b. – ISBN 5-633-01899-0. – URL: Bibliografik ma'lumot.

18. Tursunov P. Qarshi: yozilmagan tarix sahifalari. – Qarshi, 2006. – URL: [Asar haqida bibliografik ma'lumot](#).
19. Jumanazar A. Nasaf. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 204 b. – ISBN 978-9943-06-029-6. – URL: [Bibliografik ma'lumot](#).
20. Nasriddinov Q., Xo'jayarov O'. Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 136 b. – ISBN 978-9943-08-629-6. – B. 22-24. – URL: [Bibliografik ma'lumot](#).
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurilish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori. – 2014-yil 20-fevral. – 31-son. – URL: [Lex.uz — 31-son qaror](#).
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2015-yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori. – 2013-yil 1-noyabr. – 294-son. – URL: [Lex.uz — 294-son qaror](#).
23. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 592 b. – ISBN 978-9943-25-434-3. – URL: [Elektron kutubxona katalogi](#).
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – 2021-yil 1-mart. – 112-son. – URL: [Lex.uz — 112-son qaror](#).
25. Allayev M. Ch. Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi (1991-2021 yy.): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2024. – B. 48, 51, 53. – URL: [OAK / avtoreferat materiallari](#).
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar. – PF-60-son. – URL: [Lex.uz — PF-60](#).
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi. – 2018-yil 10-sentabr. – F-5361-son. URL: [Hujjatga oid rasmiy ma'lumot](#).
28. Ravshanov P., Xushvaqtov N. Qashqadaryo tarixiga sayyohat. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – B. 238-240. – URL: [Bibliografik qayd](#).
29. Jo'raqulov O., Rahmatov A. Shahrisabz yilnomasi = Shahrisabz. Chronicle of Shahrisabz. – Toshkent: Fan, 2007. – 190 b. – URL: [Bibliografik qayd](#).
30. Пугаченкова Г. А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1976. – 115 с.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – 2021-yil 9-fevral. – PF-6165-son. – URL: [Lex.uz — PF-6165](#).
32. Султанов Х. Т. К истории формирования архитектурных ансамблей Шахрисабза XIV-XV вв. (по археологическим данным): автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – 19 с.